



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-aprel


RAQAMLAR:

- 2018 yil yanvar-aprel oylarida bozor xizmatlari hajmi 1255,8 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Xizmatlar sohasining o'sish sur'ati 104,2 % ga yetdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 694,8 ming.so'mni tashkil etdi.

Xizmat ko'rsatishning sifati va qulayligini tubdan oshirish bo'yicha kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish, shuningdek, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan vazifalarni amalga oshirish xizmatlar sohasining jadal rivojlanishiga olib keladi.


Natijada, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 1255,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,2 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, %



Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



- | | | | |
|----------|---------------------------------------|-----------|--|
| 1 | Xizmatlar - jami | 8 | Ta'lim sohasidagi xizmatlar |
| 2 | Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 9 | Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar |
| 3 | Moliyaviy xizmatlar | 10 | Ijara xizmatlari |
| 4 | Transport xizmatlari | 11 | Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar |
| 5 | Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 12 | Shaxsiy xizmatlar |
| 6 | Savdo xizmatlari | 13 | Me'morchilik sohasidagi xizmatlar |
| 7 | Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 14 | Boshqa xizmatlar |

2018 yil yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (15,9 %), moliyaviy xizmatlar (13,4 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (11,1 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (6,8) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushni transport xizmatlari (28,6 %) savdo xizmatlari (27,3 %), moliyaviy xizmatlar (12,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (8,0 %) egallaydi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulush, %

Transport xizmatlari	28,6 %
Savdo xizmatlari	27,3 %
Moliyaviy xizmatlar	12,3 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	8,0 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3,8 %
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,5 %
Boshqa xizmatlar	3,3 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,3 %
Shaxsiy xizmatlar	2,5 %
Ijara xizmatlari	2,4 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2,3 %
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,9 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	1,3 %

Transport xizmatlari hajmining oshishi yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga bo'lgan talabning oshganligi hamda turizm faoliyatini jadal rivojlantirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish jarayonlarining davom ettirilayotganligi bilan izohlanadi.

**Xorazm viloyati bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari
2018 yil yanvar-aprel oylari**

Xizmatlar nomi	mlrd. so'm	O'tgan yil - ning shu davriga nis- batan foizda
Xizmatlar- jami	1255,8	104,2
shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	100,7	115,9
Moliyaviy xizmatlar	154,6	113,4
Transport xizmatlari	358,7	102,2
shu jumladan: avtotransport xizmati	343,6	101,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	30,0	104,3
Savdo xizmatlari	342,7	100,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	43,6	100,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	41,4	106,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	24,2	111,1
Ijara xizmatlari	28,7	103,3
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yi- cha xizmatlar	47,3	100,3
Shaxsiy xizmatlar	41,5	100,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinov- lar va tahlil sohasidagi xizmatlar	10,3	102,6
Boshqa xizmatlar	32,1	106,1